

DARSLIKLARDA BERILGAN MUMTOZ ASARLARNI O‘QITISHNING SAMARADOR USULLARI

Temirova Moxidil Komilovna
(SamDU, lingvistika, magistr)

Kalit so‘zlar: “Zigzag” metodi, So‘zli tasavvurlar metodi, psixologik, yakuniy tahlil metodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mumtoz asarlarning interfaol usullarda o‘qitish ko‘nikmalari tahlil etildi.

1997-yilda «Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Q.Yo‘ldoshevning jami yetti yuzga yaqin ilmiy ishlari orasida 130dan ortig‘i mamlakat umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun yaratilgan darslik va o‘qituvchilariga mo‘ljallangan metodik qo‘llanmalardan iborat. Bulardan tashqari, Qozog‘iston Respublikasidagi o‘zbek maktablarining 5-11-sinflari uchun yaratilgan, bir necha o‘n yillardan beri qayta-qayta nashr etilib kelinayotgan «O‘zbek adabiyoti» darsliklari va ularning har biri uchun yozilgan metodik qo‘llanmalar, Qirg‘iziston Respublikasidagi o‘zbek maktablari 6-,7-,8-sinflari uchun yozilgan «O‘zbek adabiyoti» darsliklari olim metodik tadqiqotlar ko‘lamidan dalolatdir. Prof. Q.Yo‘ldoshevni adabiyot o‘qitish metodikasi ilmida burilish yasadi deyish mumkin. Olim tubdan o‘zgargan jamiyatdagi adabiy ta’limni mohiyatan o‘zgartirishning ijtimoiy, ilmiy va pedagogik asoslarini ko‘rsatib berdi. U adabiy faktlarni bildirishning o‘zi adabiyot saboqlari uchun maqsad emasligini, badiiy asar bilan tanishish o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirishga qaratilishi kerakligini ta’kidlab yozadi: «Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma’naviyatida ezgu fazilatlar bo‘lmagan o‘quvchidan ko‘ra, ...badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarni o‘z tabiatiga singdirgan, sirdan qaraganda, nafaolday tuyuladigan o‘quvchilar jamiyatimiz uchun ko‘proq zarurdir».

“Zigzag”metodi

Sinf o‘quvchilari 7 ta guruhga bo‘linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O‘quvchilar matnlarni diqqat bilan o‘rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a‘zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a‘zolari tomonidan to‘ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining o‘quvchilari o‘zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so‘zlab berganlaridan so‘ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. SHu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o‘rganib chiqilgach o‘quvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g‘oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So‘ngra o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘quvchilarning o‘zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

11-sinf darsligida mumtoz adabiyot namoyonasidan Anbar Otin ijodi.

Darslikda Anbar Otin tarjimai holi o‘z tilidan aytiladi, uning “Qarolar falsafasi” asari berilgan bo‘lib asar tushunarli tilde berilgan. O‘quvchilarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun hamda darsni mustahkamlash uchun *So‘zli tasavvurlar* metodidan foydalanishlari mumkin.

Soʻzli tasavvurlar

Taʼrifi

- Oʻrganilayotgan masala bilan bogʻliq boʻlgan eng asosiy soʻzni oling.
- Oʻquvchilardan ular bu soʻzni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa soʻzlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.
- Bironta soʻzni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada oʻquvchilar dastlabki soʻz bilan tasavvur qiladigan turli soʻzlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil boʻladi.
- Mavzu oʻrganib boʻlingandan soʻng har bir oʻquvchidan ular ushbu mavzu boʻyicha nima deb oʻylashi yoki his qilishini bir soʻz bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli boʻlgan soʻzni misol keltirishni soʻrang. Sinf aylanib, bunday soʻzlarni yigʻib chiqing. Bir yoki ikki nafar oʻquvchilardan ushbu soʻzlarning roʻyxatini tuzishni iltimos qiling.

Foydalanish doiralari

Ushbu usul mavzuni oʻrganish jarayonining boshida oʻquvchilar mavzu boʻyicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – oʻquvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qoʻllanilishi mumkin.

Afzalliklari

Bunday usul oʻquvchilarga oʻzlarining shaxsiy rivojini koʻrishga, sizga esa – siz berayotgan taʼlim sifatini baholashga yordam beradi.

Qiyinchiliklari

Mashq uchun ajratilgan vaqtga qatʼiyan amal qilish lozim. Jarayonning choʻzilishi mashq mohiyatini oʻzgartirishi mumkin.

Adabiyot taʼlimi hamma davrlarda pedagogikaning asosi sifatida oʻquvchining taʼlim bilan birga tarbiyasini shakllantirishda muhim vosita boʻlib kelgan. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida adabiyotni oʻqitishdan koʻzlangan maqsad shundaki, birinchidan, bilim olish koʻzda tutilgan boʻlsa, ikkinchidan, oʻquvchilarning oʻzaro munosabatga kirishishini shakllantirish.

Psixologik tahlilda, avvalo, sinfdagi har bir oʻquvchining jismonan va ruhan sogʻlomligi, madaniyati, faol yoki sustligi, diqqatining barqarorligi va koʻlami, sezgirligi, topqirligi, hushyorligi, fanga boʻlgan qiziqishi, hozirjavobligi, oʻqituvchi bilan oʻzaro munosabati, jamoadagi oʻzaro hurmat, bolaning idroki, mantiqiy hamda obrazli tafakkuri, mustaqil, induktiv, deduktiv xulosalar chiqara olishi, xotirasi, materialni esda olib qolishi, bola fantaziyasining kengligi-yu boyligi, bajaradigan ishi kabilar qamrab olinadi. Oʻqituvchi «amaldagi ruhshunos»dir.

Yakuniy tahlil yoki xulosalar, tavsiyalar. Dars tahlilining bu qismida oʻqituvchi oʻzining mutaxassis sifatidagi xulosasi (dars jarayoniga qoʻygan bahosi)da dars oldiga qoʻyilgan maqsadga erishilganlik darajasi, uning tashkil etilishi, yaʼni sinfdagi har bir oʻquvchining darsga qanchalik jalb etilganligi, zamonaviy texnika vositalari va taʼlim metodlaridan foydalanishning samaradorligi darajasi va hokazo yuqorida sanalgan jihatlar aytib oʻtiladi. Zaruriy maslahatlar beriladi. Kuzatuvchining darsga beradigan bahosi, eng avvalo, uning darsga qarashiga bogʻliq. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oʻzbekistonda adabiyot oʻqitish metodikasi fanining rivojiga har bir metodist oʻz bilimi, salohiyati, intellektual imkoniyati doirasida hissasini qoʻshdi. Maktab darsliklarini yaratish judayam mushkul ish, chunki maktabda turli oilalardan keladigan va turli oilalarda tarbiya topgan oʻquvchilar mavjud, ammo darsliklarni umumiy bola yoshiga mos tarzda tuziladi, toʻgʻri biz har bir bolaning

psixologiyasini bilmaymiz, bu mavzuni yortish hamda ochib berish mahoratli o‘qituvchining qo‘lida albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent, 2012.
2. Ahmedov S., Qosimov B., Qo ‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot, 5-sinf, O‘qituvchilar uchun metodik qo ‘llanma. Ma’naviyat, –T.: 2003-yil.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. - 174 b.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: 2018-yil.